

**Bozorboyeva Mehribon**

Xorazm viloyati

Yangibozor tumanidagi 20-maktab o'quvchisi

---

## **O'ZBEK SHOIRLARINING ONALARGA BAG'ISHLAGAN SHE'RLARI TAHLILI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek shoirlarining ona haqida, onaning ulug'ligi va beqiyos fazilatlarini haqida bitgan she'rlari tahlili to'g'risida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Ona, sabr-matonat, mehr, tarbiya, imon, din, muqaddas.

---

-Dunyoda hech qanday chegarani tan olmaydigan va quyosh kabi mutassil nur sohib turuvchi ilohiy bir kuch bor.

Bu – ona mehri.

O'tkir Hoshimov

O'zbek adabiyoti ona haqida yozilgan durdona asarlarga, she'rlarga, nihoyatda, boy. Onani ulug'lashda, madh etishda ijodkorlarimiz chin ma'noda ulkan yutuqlarga erishgan. Nasrda ham, nazmda ham har qancha maqtovga arziydigan asarlarimiz borligi bizga g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

Adabiyotda yozuvchilar tomonidan ko'p madh etiladigan mavzulardan biri bu – ona obrazi. Onalar haqida so'z borar ekan, uning mehr-u shafqati, masumaligi, mehr-u muhabbatda tengsiz zot ekanligiga hech shubha yo'q. Ona farzandi uchun eng bebaho boylikdir. Negaki, ona farzandi hali qornidaligidayoq g'amxo'rlik qiladi. Ne mashaqqatlar ila dunyoga keltiradi, oq yuvib, oq taraydi va umrining so'ngigacha jonini fido qilishga tayyor bo'ladi. Bu fikrlarning tasdig'ini quyidagi she'rlar misolida ko'rishimiz mumkin:

Vatanni ona deb bekor aytilmas,

Ona buyurganda yo'ldan qaytilmas.

Sen o'zing Ka'bamsan, Baytul muqaddas,

Payt keldi aytmoqqa, gapning xonasi,

Ey, o'zbek onasi, o'zbek onasi.<sup>1</sup>

Mana shu go'zal satrlarni o'qiboq onaizorning naqadar mo'tabar zot ekanligini yana bir bor anglaymiz. E'tibor beradigan bo'lsak har doim Vatan so'zi yonida, albatta, ona so'zi yonma-yon keladi. Negaki, biz o'zimizni onamizning bag'rida qanchalik erkin his qilsak, Vatani bag'rida yurgan inson ham xuddi shunday o'zini erkin his qiladi. Balki, shuning uchun ham ona Vatan deyilar.

Bilamizki, ota-onalar farzandlariga hech qachon baxtsizlikni tilamaydi. Va ular bizga har doim to'g'ri yo'lni ko'rsatadigan, yo'limizni yoritadigan shamchiroqlardir. Ana shuning uchun ham shoir purma'no she'rida “Sen o'zing Ka'bamsan, Baytul muqaddas” deb bejiz aytmayapti. Ma'lumki, har yili yurtimizdan ham dunyoning yetti iqlimidagi musulmonlar ham Ka'bani, Baytullohni ko'rish uchun necha millionlab musulmonlar Umra safariga borishadi. Gohida esa o'sha Ka'bamiz yonimizda ekanligini unutib qo'yamiz. Axir, “Jannat onalar oyog'i ostida-ku!” Demak, jannatimiz bizni yonimizda har doim. Bu satrlar orqali qalami o'tkir shoirimiz Abdulla Oripov olam-olam ma'no kasb etadigan gaplarni to'rt satr qilib, o'quvchi yuragini larzaga solyapti.

Insoniyat o'z oilasi, yaqinlarini sevishi uchun bilim va fikrlash zarur. Shunda uning dunyoga kelishiga sabab bo'lgan volidasining zahmatini, padari buzrukvorining marhamatini, bobo-

---

<sup>1</sup> Bilimlar.uz- Ona haqida eng sara she'rlar to'plami

buvilarining sabr-toqatini, qarindoshlarining samimiy muhabbatini his qiladi. Shayx Sa'diy ta'kidlaganidek:

Esingdami sen tug'ilgan, on,  
Hamma shodon edi, sen esa giryon,

Shunday yashaginki, ketar chog'ingda

Hamma shodon qolsin, sen ketgan giryon<sup>2</sup>

Biz insoniyat olamiga yig'lab keldik, hamma bizni xursand kutib oldi. Onamiz joni halak bo'lib, dunyoga keltirdi. Otamiz jon fido bo'lib, bizni bag'riga bosdi. Ota-onalarimizdan bizga mehribonroq kim bor bu hayotda! Hayotda shunday yashash kerakki, ota-onaning roziligini olib rohatda yashashimizga nima to'sqinlik qila oladi?! Shu o'rinda bu fikrlar tasdig'i uchun quyidagi she'r misol bo'la oladi:

Onangni rozi etsang,  
Zamon seniki  
Ne zamon zamin-u,  
Osmon seniki  
Agar otangni ham,  
Rozi eta olsang.  
O'n sakkizming olam,  
Jahon seniki<sup>3</sup>

Ahad Qayum

Inson degan nomga loyiq bo'lish uchun ota-ona rizosi zarur. Hayotda ravnaq toppish uchun, ikki dunyo saodatiga erishish uchun ota-ona duosi zarur. Qarang, hattoki, bu dinimizda ham keltirilgan: "Qaysi bir mo'min banda tong otganida ota-onasi undan rozi bo'lsa, unga jannatdan ikki eshik ochiladi. Agar biri rozi bo'lsa, bir eshik ochiladi".

Bu hadisdan xulosa shuki, har qanday holatda ham ota-onalarga yaxshilik qilib, ular xizmatida bo'lib, ularning roziligini olish zarur. Shunda hayot saodati unga kulib boqadi, rizqi farovon bo'ladi.

Ona bor dunyoda yashash boshqacha,  
Onani tarifi-yu mehri boshqacha.  
To'lsa hamki, hatto to'qson yoshgacha,  
Ona bor hayotda yashash boshqacha.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'zbek shoirlarining ijodida ona obrazi alohida ahamiyat kasb etadi. Nafaqat shoirlar, adiblar ijodida balki, har bir inson hayotida ona siymosi eng birinchi o'rindi turadi. Chunki onalar bizning yerdagi farishtalarimizdir. Ota-onaning duosini olgan inson kam bo'lmaydi, g'amga botmaydi, tinchlik va xotirjamligi barqaror, sihat-salomatligi bardavom bo'ladi.

Ota-onalarimizga yaxshilik qilishimiz, duosini, rizoligini olishimiz bizni farzandlik burchimizdir. Ota-onaga hurmat tarbiyaning a'losi, inson odobining kamoli mukammal axloq toji, insoniylik talabi, qalb safosi, umr ziyosidir.

<sup>2</sup> O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi sayti

<sup>3</sup> Bilimlar.uz sayti